

**“Turonbank” ATB tizimida 2025-yil davomida  
manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish yuzasidan  
TAHLILIY MA`LUMOT**

Bank tizimida Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori bilan “Turonbank” ATBning manfaatlar to‘qnashuviga oid Siyosati hamda Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizomi tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar bilan bank tizimida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Bank tizimida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan:

- vakant bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarga nomzodlarni ishga qabul qilish,
- xodimlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilish;
- har yillik deklaratsiyalash (har yili 15-fevral kuniga qadar);
- mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan holat(lar)da.

2025-yil mobaynida bank tizimidagi xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar tomonidan Bankning avtomatlashtirilgan EHAT maxsus dasturi platformasi orqali manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida deklaratsiyalarni taqdim etishgan. Bank **Kuzatuv Kengashi, Boshqaruv a‘zolari, Bosh ofisning 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo‘linmalarining **1,5 ming nafarga** yaqin rahbar va xodimlari tomonidan to‘ldirilgan deklaratsiyalar tahlili natijalariga ko‘ra bank tizimida **42 ta** holatda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjud ekanligi aniqlandi va ushbu holatlarni bartaraf etish hamda kelgusida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaslik yuzasidan barcha hujjatlar Bank Odob-axloq komissiyasi muhokamasiga kiritilib, barcha xodimlar ogohlantirildi va belgilangan tartibda tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonuni (*yangi tahriri*) asosida Bank tizimida Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom yangi tahrirda ishlab chiqildi hamda bank tizimida xodimlarning manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot tadbirlari doimiy ravishda amalga oshirib borildi. Xususan, joriy yilning iyul oyida **O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda** Bank xodimlariga “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini tushuntirish yuzasidan o‘quv seminari tashkil etildi.

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI ODOB-AHLOQ KOMISSIYASINING  
YIG‘ILISH BAYONI**

**10.10.2025**

**№ 3**

**Toshkent sh.**

**“Odob-ahloq komissiyasi” Raisi:** Boshqaruv raisi

o‘rinbosari v.b.

D.A.Rustamov

**“Odob-ahloq komissiyasi” a‘zolari:**

Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti direktori

N.I.Tangniberdiyev,

Bank xavfsizlik departamenti direktori

Sh.M.Xamrayev

Komplaens nazorat departamenti direktori

O‘I.Tangirov

Yuridik xizmati boshlig‘i

F.F.Maxmudov

Birlashgan kasaba uyushmasi a‘zosi

Z.K.Karimova

Xotin-qizlar masalalari va gender tengligi

bo‘yicha komissiya a‘zosi

L.A.Amanova

Yoshlar yetakchisi (Yoshlar masalalari

bo‘yicha maslahatchi)

K.Z.Zuhurov

**Majlis kotibi:**

**O.Olimov**

**KUN TARTIBI**

**1. Manfaatlarni to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlar tomonidan to‘ldirilgan yillik deklaratsiyalar bo‘yicha aniqlangan potensial manfaatlarni to‘qnashuvlarni tartibga solish.**

Majlis kun tartibidagi **masala** bo‘yicha bank Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti direktori N.I.Tangniberdiyev so‘zga chiqib, yillik deklaratsiyalarni to‘ldirgan xodimlarda aniqlangan potensial manfaatlarni to‘qnashuvlari mavjud ilovadagi xodimlar ro‘yhatini o‘qib eshittirdi. (ro‘yhati ilova qilinmoqda)

Shuningdek, potensial manfaatlarni to‘qnashuvlari mavjud bolgan hollarda, Bank Kengashi tomonidan 2024-yil 25-dekabrda K-83/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Turonbank” ATB tizimida manfaatlarni to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi NIZOM”da, manfaatlarni to‘qnashuvlarini boshqarishda manfaatlarni to‘qnashuvi predmetini belgilab beradigan faktlardan kelib chiqib choralar belgilash belgilanganligini ta’kidlab o‘tdi.

Komissiya a‘zolari potensial manfaatlarni to‘qnashuvlari holatlarini mazkur Nizom talablariga muvofiq atroflicha muhokama etib, potensial manfaatlarni to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan ilovada keltirilgan xodimlarning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik

shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatish ehtimoli mumkin bo'lgan holat deb baholanishidan kelib chiqib, ularning oldini olish maqsadida

## QAROR QILADI

1. Potensial manfaatlar to'qnashuvi mavjud mazkur ro'yxatdagi xodimlarning, uning yaqin qarindoshlarining va Bank bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli oldini olish bo'yicha quyidagi choralar ko'rilsin;

a) Mazkur xodimlarning tegishli faoliyatni amalga oshirishda yoki qaror qabul qilishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etmasligi yoki chetlashishiga ruhsat berish;

b) manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy vaziyatlarni doimiy monitoring qilish va baholash;

v) profiliktik suhbatlar o'tkazish, xodimning lavozim vazifalarini ko'rib chiqish, yoki unga lozim bo'lsa o'zgartirish kiritish;

g) Ro'yxatdagi xodimlardan shaxsiy manfaatlari uning lavozim majburiyatlariga ko'ra yaqin qarindoshlari bilan manfaatlar to'qnashuviga ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlarda boshqa lavozimga o'tkazish choralari ko'rilsin. *(Mazkur shaxslar ro'yxati ilova qilinadi)*

2. Mazkur qaror ijrosini ta'minlashni Komplaens nazorat departamenti direktori O'.I.Tangirov hamda o'z zimnamga qoldiraman.

### Komissiya Raisi

|                                  |                                                                                     |              |
|----------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari v.b. |  | D.A.Rustamov |
|----------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------|

### Komissiya a'zolari

|                                                                  |                                                                                     |                    |
|------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------|
| Komplaens nazorat departamenti<br>departament direktori          |  | O.I.Tangirov       |
| Xaridlar boshqarmasi boshqarma boshlig'i                         |  | K.Z.Zuhurov        |
| Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti<br>departament direktori |  | N.I.Tangniberdiyev |
| Devonxona boshlig'i                                              |  | Z.K.Karimova       |

Mijoz hisob raqamlari va ularning talablari  
bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassis



L.A.Amanova

Xavfsizlik departamenti departament  
direktori



Sh.M.Xamrayev

Bank yuridik xizmati boshlig'i



F.F.Maxmudov

Kotib: O.I.Olimov  
(IP: 1033)